

**O‘ZBEK XALQ QO‘SHIQLARI: O‘LAN VA LAPARLARNING DISKURSIV XUSUSIYATLARI, TAKROR HODISASI VA OKKAZIONAL BIRLIKLAR**

Jahongir Ismailov,

Renessans universiteti Filologiya kafedrasida dotsenti

O‘zbek xalq qo‘shiqlari boy tarixiy qatlam va rang-barang shakllari bilan ajralib turadi. Quyida ularning ayrim ahamiyatli turlari hamda diskursiv xususiyatlari tahlil qilinadi.

Xalq lirikasining yirik janrlaridan o‘lan va laparlar o‘zbek og‘zaki ijodida muhim o‘rin tutadi. Ular xalqning his-tuyg‘ulari, muhabbat va dardlarini ixcham, lekin ta’sirchan shaklda ifodalaydi.

O‘lanning asosiy belgilari quyidagilar:

– Qisqalik va lo‘ndalik: odatda bir necha misradan iborat bo‘lib, ixcham, aniq fikr tugunlarini jamlaydi.

– Emotsionallik: sevgi, sog‘inch, xafalik, orzu-umid singari hissiy qatlamlar yetakchi.

– An’anaviy mavzular: turmush, tabiat, insoniy kechinmalar va xalq urf-odatlarini badiiy o‘zakni tashkil etadi.

Laparlarning asosiy belgilari quyidagilar:

– Raqsga moslik: ko‘pincha raqs jarayonida ijro etiladi; ritm va jo‘shqinlik kuchli.

– Mahalliy rang-baranglik: hududlarga ko‘ra uslub va ohanglarda farq qiladi.

– Marosimiy bog‘liqlik: to‘y, bayram va boshqa udumiy tantanalarda kuylanadi.

O‘lanlar odatda an’anaviy boshlovchi qolip bilan kiradi va janr identifikatorini darrov bildiradi:

“Baland tog‘lar boshida tuman toshi-yo,
To‘y oldidan tortganim so‘qim oshi-yo,
Hadding bo‘lsa qanikan o‘lan boshla,
Bu elatning man degan keksa, yoshi-yo.”

Lapar boshlovchilari ham xuddi shunday kirish vazifasini bajaradi; ohang va mazmun jihatidan o‘larga yaqin:

“Tomdan tuproq tushadi yel turganda,
Laparni kim aytadi biz turganda.
Qoshu ko‘zi qiyilgan boyning qizi,
Yotsam uyqu kelmaydi siz turganda.”



Bu misollar shuni ko'rsatadiki, o'lan va lapar mavzu, kompozitsiya (qofiya, misra soni) va ohang jihatidan ko'p hollarda yaqinlashadi.

Asosiy tafovut ijro erkinligida ko'rinadi. O'lanlar zamon va ijrochi individualligiga nisbatan moslashuvchan, ba'zi qismlarini vaziyatga ko'ra o'zgartirish mumkin. Laparlar esa nisbatan turg'un: "Soy bo'yida turgan yigit", "Boshginam og'riydi-yo", "Qoshingni qora deydilar..." kabi namunalarda matnini o'zgartirmasdan yetkazish muhim deb qaraladi.

Folklorshunoslik xalq qo'shiqlarini keng ma'noda xalq lirikasi sifatida ko'radi va ularni marosimiy va nomarosimiy guruhlariga ajratadi. So'nggi yillarda "lirik qo'shiq" alohida janr sifatida torroq — asosan ishq-muhabbat va maishiy mavzular doirasida — tadqiq etilmoqda. O'zbek lirik qo'shiqlari ko'pincha to'rtlik shaklida barqaror ohang asosida kuylanadi; har bir to'rtlik ko'pincha tugal voqelikni ifodalaydi.

Ijrochining individual mahorati orqali ma'lumot tinglovchiga yetadi, assotsiatsiyalar uyg'otadi, ma'naviy-intellektual rezonans hosil qiladi. Ijrochi obyektiv voqelikni tasvirlashda usul va janrni tanlaydi, leksik vositalarni saralaydi, ulardan ta'sirchan sintaktik qurilishda foydalanadi. Qo'shiq nutqining o'ziga xosligini ta'minlovchi vositalar: fonetik, leksik va semantik takrorlar, shuningdek okkazyonalizmlardir.

Qo'shiqlarda qadimdan ma'lum tovush takrorlari (alliteratsiya, assonans, anafora/epifora, qofiya, ritm) kuchli uslubiy vazifa bajaradi. O. Brik ilk bor "tovush takrori"ni ilmiy muomalaga kiritib, undosh takrorlariga alohida e'tibor qaratgan. She'riy va qo'shiq matnlarida bu hodisa so'zlararo yaqinlik va musiqiylikni kuchaytiradi. Hatto ayrim sarlavhalar ham tovush replikatsiyasiga quriladi:

"Na ... a ... a" qo'shig'i

Dadajon, qarang, qarang shu qizgina bamo ekan...

Singiljon, qarang, qarang dadam hali qari emas...

3.2. Leksik takror

Leksik takror mavzu-ritm uyg'unligini mustahkamlaydi. Masalan, "Yor-yor"da yor leksemasining ikki karra takrori semantika va ritmni kuchaytiradi:

"Yor-yor" lapari

"Navro'z yor-yori"

oshingni qora deydilar,

Qoraqosh ukam, yor-yor...

Bu kabi takrorlar matnning hissiy va musiqiy ta'sirini oshiradi, tinglovchida kuchli iz qoldiradi.



Tahlil shuni ko'rsatadiki, takrorlanuvchi birliklar ashulaning tematik maydonini hosil qiladi:

– Sevgi–qismat maydoni: *sevgi, qismat, umid, nafrat*.

– Tabiat–go‘zallik maydoni: *quyosh, osmon, gul, yurt*.

– Haqiqat–orzu maydoni: *haqiqat, orzu, umid, xayol*.

“Oq yulduz”da *yulduz, tinchlik, sevgi* birliklari; “Mening yurtim”da *yurt, qishloq, tabiat* birliklari leksik zanjir hosil qilib, mikro-mavzularni belgilaydi va tinglovchini chuqur hissiy–tafakkuriy qabulga yetaklaydi.

Lirik qo‘shiq — avvalo so‘z va obraz san‘ati. Obraz ijodkorning til vositalaridan mohirona foydalanishiga tayanadi. “Tushuncha” — kollektiv ongda invariant sifatida shakllanadigan psixik model bo‘lib, u alohida so‘z emas, balki til fondi orqali — ko‘pincha “kichik matnlar” (qo‘llovchi so‘zlar majmuasi) orqali ifodalanadi. Masalan, “ayol” tushunchasini ifodalovchi nominativlar: go‘zallik, ona, oila ustuni, xotin, sadoqat, farishta, sevgi, nazokat va b. Qo‘shiq matni shu bilish nuqtalarini kompozitsion birlashtirib, to‘laonli obraz yaratadi.

Qo‘shiq matnlaridagi okkazional birliklar (muallifiy neologizmlar) ijodkorning uslubiy imzosidir. Ular, odatda, so‘z yasaliş darajasidagi ijodiy mexanizmlar orqali vujudga keladi. Tadqiqotlarda okkazionalizmlarning 9 ta belgisi ajratiladi:

- 1) nutqqa xos hodisa;
- 2) qayta foydalanishga mo‘ljallanmagan, sun‘iy yaratilgan til birligi;
- 3) kompozitsion ijodkorlikni talab qiladi;
- 4) g‘ayritabiiylik elementi mavjud;
- 5) odatda bir marotabalik funksional qo‘llanish;
- 6) yuqori ifodalilik;
- 7) nominativ ixtiyoriylik;
- 8) sinxron–diaxron o‘tish imkoniyati;
- 9) individual uslubiylik.

Ularning paydo bo‘lish sabablarini quyidagicha jamlash mumkin:

- a) fikrni ixcham va aniq yetkazish zarurati;
- b) murakkab obrazni sintez qilish (bir necha fikriy tizimni birlashtirish) ehtiyoji;
- c) mavjud tushunchalarga muvaffaqiyatliroq nom berish istagi;
- d) hodisani obrazli tasvirlash talabi;
- e) poetik texnik vazifalarni (uyg‘unlik, ritm) saqlash;
- f) tavnologiyadan qochish;
- g) so‘zning o‘ziga xosligini ta‘minlash va “eskirgan” birliklarni takrorlamaslik.



O‘lan va laparlar o‘zbek xalq lirikasining markaziy janrlari bo‘lib, mazmun, kompozitsiya va ohangda yaqin, ijro erkinligi va matn turg‘unligida esa turlicha yo‘nalishga ega. Lirik qo‘shiqlarda fonetik va leksik takrorlar tematik tarmoqlarni kuchaytiradi, semantik zanjirlarni hosil qiladi va hissiy rezonans yaratadi. Okkazonalizmlar esa muallif uslubini belgilab, qo‘shiq nutqining innovatsion qatlamini yuzaga keltiradi. Natijada, xalq qo‘shiqlari nafaqat badiiy-estetik, balki kognitiv–pragmatik hodisa sifatida ham ijtimoiy xotira va kollektiv identitetni mustahkamlab boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Сыздықова Р. Абайдың сөз өрнегі. - Алматы: Ғылым, 1995. – 231 б.
2. Муратова Г.Ә. Көркем әдебиеттегі қажеттілік пен кездейсоқтық. – Алматы, 2002. – 45- 46 б.

